

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

"Tasdiqlayman"
O'zbekiston davlat
konservatoriyasi rektori

K.T.Urinbayev

« 17 » 06 2025-yil

"Kelishildi"
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi

[Signature]

« 17 » 06 2025-yil

"Kelishildi"
O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi

[Signature]

« 17 » 06 2025-yil

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

60211000 – San'atshunoslik: musiqashunoslik
ta'lim yo'nalishi uchun

Toshkent – 2025 yil

Dastur O'zbekiston davlat konservatoriyasining O'quv – uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan (2025-yil 30 May dagi 10- sonli majlis bayoni)

Tuzuvchilar:

Ganixanova Sh. – “Musiqqa tarixi va tanqidi”
kafedrasi professori, s.f.d.

Ergasheva Ch. – “O'zbek musiqasi tarixi” kafedrasi
mudiri, dotsent, s.f.f.d. (PhD)

Mirtalipova I. – “Musiqqa nazariyasi” kafedrasi mudiri,
s.f.f.d. (PhD)

Taqrizchilar:

Hamdamova N. – B.Zokirov nomidagi Milliy esrtada
san'ati instituti “Musiqiy nazariy va tarixiy fanlar”
kafedrasi mudiri, s.f.f.d. (PhD)

Qosimxodjayeva S. – O'zDK “Musiqqa tarixi va
tanqidi” kafedrasi mudiri, professor, s.f.n.

Kirish

60211000 – San’atshunoslik: musiqashunoslik ta’lim yo’nalishi bo’yicha 1-fan Ixtisoslik imtihon dasturi, 2-fan Musiqa nazariyasi (garmoniya va solfedjio) fanidan Abituriyentlarning amaliy-nazariy ko’nikma va malakalarini aniqlash uchun mo’ljallangan. Ushbu ta’lim yo’nalishi bo’yicha hujjat topshirgan Abituriyentlar musiqiy asarlarni va musiqiy-nazariy bilimlarni tekshirish maqsadida ish bajaradilar. Bajariladigan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

1-fan

“Musiqa adabiyoti va cholg’u ijrochiligi”

“Musiqa adabiyoti va cholg’u ijrochiligi” fanidan sinovlar 2-bosqichda o’tkaziladi:

1-bosqichda abituriyent “Musiqa adabiyoti” bo’yicha yozma va og’zaki tarzda topshiriqlarni bajarishi lozim.

2-bosqichda abituriyent “Cholg’u ijrochiligi” (fortepiano, an’anaviy cholg’ular yoki estrada cholg’ulari) bo’yicha amaliy topshiriqlarni bajarishi lozim.

Fanning maqsadi va vazifalari

1-bosqich: “Musiqa adabiyoti” fanidan sinovlar dasturining maqsadi - abituriyentlar musiqa san’atiga oid fan tarmoqlarining tizimi haqida, ularning tub xususiyatlarini idrok etish, shakllanishi va taraqqiyot yo’lini kuzatib o’rganish, xalq musiqasi, mumtoz-an’anaviy, bastakorlik va kompozitorlik musiqa ijodiyotining ilmiy asoslari haqida chuqur tasavvurga ega bo’lganliklarini namoyish etishlari zarur.

“Musiqa adabiyoti” fanini o’zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo’nalishlarda bilimlarga ega bo’lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. “Musiqa adabiyoti” fani yuzasidan abituriyentlar ilmiy yo’nalishlarning yuzaga kelish sabablari, atamalarning ilmiy jihatdan birdan-bir to’g’ri talqinlari, tayanch tushunchalar, musiqashunoslikning rivoj topish yo’llari hamda shu kunga qadar qo’lga kiritilgan yutuqlar va amalga oshirilgan muhim tadqiqotlar haqida bilim hamda ko’nikmalariga ega bo’lishlari lozim. Bundan tashqari abituriyent o’zining kelajakdagi mutaxassis faoliyatining turli ilmiy yondoshishlarini o’rganib, shu jumladan ilmiy ishni tashkil qilish usullarini, ilmiy tadqiqotning uslubiyati va texnikasi, adabiyot, nota, shuningdek boshqa manbalar bilan ishlash uslubi musiqashunoslikda qo’llaniladigan boshlang’ich axborot texnologiyalar bilan tanish bo’lishlari zarur.

Musiqashunoslik fakultetiga kiruvchi abituriyentlar quyidagi bilimlarga ega bo’lishlari lozim:

O’rta maxsus musiqa maktablari va kasb-hunar kollejlariining talabi hajmida jahon xalqlari musiqa adabiyotini, jahon xalqlari musiqiy madaniyatining ko’zga ko’ringan hodisalari va bosqichlarini, O’zbek musiqa adabiyotini, musiqa madaniyati

va ijodiyoti namoyandalari (bastakorlar va kompozitorlar) va sohaga oid taniqli chet el va o'zbek mutaxassislarining ilmiy ishlari va maxsus adabiyotlardan xabardor bo'lishi kerak. Shuningdek, abituriyent oldiga qo'yiladigan yana muhim talablardan biri ijtimoiy-siyosiy masalalarda aniq va savodli fikr yuritish olish, san'at va madaniyat sohalarida kechayotgan jarayonlardan boxabar bo'lishi, mustaqil ravishda aniq musiqiy asarni puxta tahlil qila olishi shart.

"Musiqqa adabiyoti" bo'yicha imtihon o'zbek va rus tillarida ko'p ballik tizim asosida baholanadi. Imtihon og'zaki va yozma shakldan iborat.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

Abituriyent "Musiqqa adabiyoti" fanidan o'quv dasturi doirasida to'laqonli bilimiga ega bo'lgan holda og'zaki va yozma ma'lumotlarni mantiqan to'g'ri bajarganda, muayyan davr, namoyanda yoki asar xususida to'laqonli fikrlar bayon etganda shuningdek, fan bo'yicha bilimlari yuqori badiiy darajada bo'lganida qo'yiladi. Talabaning musiqiy tarixiy va tahliliy ma'lumotlarni yorqin, asosli va tushunarli gapirib berish mahorati namoyon bo'lishi kerak.

Yozma ish

Abituriyent yozma ish uchun taklif etilgan to'rtta mavzudan (kompozitorlar ijodi, bastakorlar ijodi, musiqiy asarlar, musiqiy yo'nalishlar, janr va boshqalar) istalgan birini tanlaydi va musiqqa san'ati bo'yicha mavzuni tahlil qilish, o'z taassurotlarini o'quvchiga etkazish qobiliyatini namoyon etadi. Talabgor asarning g'oyaviy mazmunini, badiiy xususiyatlarini ochib berishi, muallif niyatini aniqlashi va badiiy ifodalash vositalarini tahlil qilishi kerak.

Yozma ish ZOOM platformasida videokonferens aloqa orqali o'tkaziladi. Konferensiyaga kirish uchun havolalar ariza beruvchilarga elektron pochta va (yoki) boshqa aloqa vositalari orqali e'lon qilinadi.

Texnik talablar: Barcha abituriyentlar bitta xonada bo'lishlari shart; barcha mobil va elektron qurilmalar olib kirilishi man etilgan, Zoom tizimiga kiritilgandan kegin; - kameraning ko'rish maydonini tark etishga yo'l qo'yilmaydi; - tovushli, vizual va boshqa signallardan foydalanish taqiqlanadi; - Ish yozma ravishda qo'lda yozilishi kerak. Yozma ish uchun 2 soat ajratiladi. Ishni yozganidan so'ng, uni imtihon komissiyasi ko'rib chiqadi. Berilgan vaqt ("2" soat)dan keyin topshirilgan ish qabul qilinmaydi.

Yozma ishga qo'yiladigan talablar:

№	Savollar mazmuni (yozma)	To'liq javob uchun ball
1.	Topshiriq talablarining bajarilganligi	1-13 (ballgacha)
2.	Grammatika	1-10 (ballgacha)
3.	Leksika	1-10 (ballgacha)
4.	Bog'lanish va matn yaxlitligi	1-10 (ballgacha)
Jami		43,0 ball

“Musika adabiyoti” fani bo'yicha yozma topshirig'i uchun abituriyentlarning to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball- 43,0 ball.

Og'zaki

Abituriyentga jahon musiqa adabiyoti va o'zbek musiqa adabiyotidan 4-ta savol taqdim etiladi. Savol mazmun-mohiyatini ochib berish talab etiladi. Abituriyent musiqa adabiyoti fanidan tarixiy bilimlarni namoyon etib berishi shart. Taxminan tavsiya etiladigan mavzularga misol:

1. I.S. Bax va zamonoviylik.
2. M.Glinka. Ivan Susanin operasi.
3. Navoiy va musiqa.
4. M.Burxonovning ijodiy qiyofasi.

Ijodiy imtihon abituriyent tomonidan bajariladigan amaliy ish (og'zaki savol-javoblar) quyidagi mezon asosida baholanadi:

№	Savollar mazmuni (og'zaki)	To'liq javob uchun ball
1.	Chet el musiqa adabiyoti	10,0
2.	Rus musiqa adabiyoti	10,0
3.	O'zbek xalq va an'anaviy musiqa merosi	10,0
4.	O'zbekiston kompozitorlik ijodiyoti	10,0
Jami		40,0

“Musika adabiyoti” fani og'zaki topshiriq bo'yicha abituriyentlarning to'plashlari mumkin bo'lgan maksimal ball- 40,0 ball.

“Musika adabiyoti” fani bo'yicha abituriyentlarning to'plashlari mumkin bo'lgan maksimal ball- 83,0 ball.

“Cholg'u ijrochiligi” (fortepiano, an'anaviy cholg'ular va estrada cholg'ulari) fani

Fanning maqsadi va vazifalari

2-bosqich: “Cholg'u ijrochiligi” fani bo'yicha ijodiy imtihon Abituriyentlarning professional ijro ko'nikmalari va nazariy bilim doirasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Abituriyentning professional ijro ko'nikmalarni egallash darajasi quyidagi ko'rsatkichlardan tuziladi:

- musiqiy asarlarini to'g'ri tahlil qilish qobiliyati,
- Cholg'u ijrochiligi texnikasini o'zlashtirish darajasi,
- musika asarining badiiy mazmunini etkazib berish qobiliyati,
- badiiy didning rivoji bilan birga fikrlash darajasini aniqlash.

“Cholg’u ijrochiligi” fanini o’zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar – Abituriyentlar nafaqat ijro mahoratida, balki musiqa nazariy fanlar bo’yicha katta bilimlarga ega bo’lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Shu bilan birga professional darajani takomillashtirishga, ijrochilik texnikasini va artistik mahoratini rivojlantirishga, yuqori badiiy saviyada tarbiya olishga qaratiladi. Ixtisoslik fani yuzasidan talaba davr talabiga binoan dunyoqarashi keng bo’lgan, ya’ni insoniyat madaniyati tarixi, rivojlanish pog’onalari xususan, adabiyot va san’at sohasida teran fikr yuritish bilan birga, zamonaviy bo’lgan kompyuter tizimidagi jahon musiqiy dasturlari yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishi shart.

Abituriyent ijro dasturiga qo’yiladigan talablar

Imtihon jarayonida Abituriyentlar uchun vazifa belgilanadi: ikkita asardan iborat dasturni ijro etish. Dastur fortepiano uchun polifonik (XVI – XX a.) va etyud asarlaridan, **an’anaviy cholg’ular va estrada cholg’ularida esa ijro dasturi yirik shakl (o’zbek milliy kuylaridan yoki milliy estrada asarlaridan), o’zbek xalq musiqasidan namuna, mahoratli asarni ijro etib berishi talab etiladi.**

Ijro sifatiga qo’yiladigan talablar:

- asarning matnini aniq ijro etish (metroritm, temp, dinamika);
- texnik erkinlikni namoyish qilish;
- musiqiy asarni shaklini to’g’ri tusish;
- asarini badiiy mazmunini etkasib berish.

BAHOLASH MEZONI:

	Ijro dasturi uchun belgilangan talablar	Ijro uchun ball
1.	Asarning belgilangan repertuarga muvofiqligi	3,0
2.	Asarni belgilangan tempda va texnik jihatdan erkin ijro etish	3,0
3.	Asarda metroritm, dinamika, intonaziy va shtrix talablari	2,0
4.	Asarni ijrosi janr va mazmuniga muvofiqligi	2,0
Jami		10,0

Cholg’u ijrochiligi fani bo’yicha to’plash mumkin bo’lgan maksimal ball – 10.0 ball

“Musiqa adabiyoti va cholg’u ijrochiligi” fani bo’yicha abituriyentlarning to’plash mumkin bo’lgan maksimal ball- 93,0 ball.

2-fan

MUSIQA NAZARIYASI

(garmoniya va solfedjio)

“Musiqa nazariyasi” fanidan sinovlar 2-bosqichda o’tkaziladi:

1-bosqichda abituriyent “Garmoniya” fani bo’yicha amaliy topshiriqlarni bajarishi lozim.

2-bosqichda abituriyent "Solfedjio" fani bo'yicha amaliy topshiriqlarni bajarishi lozim.

"Garmoniya" fanidan

Fanning maqsadi va vazifalari

1-bosqich "Garmoniya" fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi - Abituriyentlarning "Garmoniya" fanidan nazariy bilim doirasi, amaliy ko'nikmalarining shakllanganligi, musiqiy asarlar tahlili jarayonida garmonik qonuniyatlarni qay darajada bila olishini aniqlashdan iborat. Garmoniya musiqa ijrochilarining maxsus nazariy bilim darajasini belgilaydi. Professional ijro ko'nikmalari, tabiiy iste'dod, badiiy didning rivojlantirish bilan bir qatorda garmonik xususiyatlarni idrok etish, ijro paytida anglash qobiliyatlarini namoyon etishga xizmat qiladi. Shuningdek, musiqa muallifining asarida bayon etilgan badiiy g'oyasining garmonik jihatlarini o'zlashtirishga yordam beradi.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

- klassik garmoniyaning nazariy qonuniyatlarini bilish;
- nazariy bilimlarni fortepianoda ijro etish orqali namoyon etish;
- bir ovozli kuyni garmoniyalashda garmonik mantiqqa asoslangan holda, akkordlar funksiyasini to'g'ri qo'ya bilish;
- davriya ichida jumlarlar va kadensiyalar miqdorini to'g'ri aniqlashni bilish;
- ovoz yo'nalishi qonuniyatlariga to'g'ri amal qilish;
- berilgan davriyada modulyatsiyani amalga oshirish;
- akkordsiz tovushlarni qo'llagan holda akkordlar ketma-ketligini va modulyatsiyani ijro etishni bilish;
- diatonik, xromatik va transpozitsiya sekvensiyalarni ijro etish;
- musiqiy asarni garmonik funksiyasi va shaklini aniqlay bilish;

Abituriyentlar og'zaki berilgan vazifani xatosiz bajarishlari kerak: fortepianoda garmonik ketma-ketliklarni to'g'ri ijro etish orqali amaliy va nazariy bilimlarini yuqori darajada ekanligini ko'rsatishlari lozim.

Garmoniya fanidan Abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

OG'ZAKI:

1. Davriya shaklida II- va III-darajadagi turdosh tonallikka modulyatsiyalarni fortepianoda ijro etish.
2. Davriya shaklida engarmonik modulyatsiyani ijro etish.
3. Diatonik yoki xromatik sekvensiyalarni ijro etish.

BAHOLASH MEZONI:

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1.	Davriya shaklida II va III darajadagi turdosh tonallikka modulyatsiyalarni fortepianoda ijro etish.	13,0

2.	Davriya shaklida engarmonik modulyatsiyani ijro etish.	13,0
3.	Diatonik yoki xromatik sekvensiyalarni ijro etish.	7,0
Jami		33,0

“Garmoniya” fanidan abituriyent tomonidan yig‘iladigan eng yuqori ball 33,0 ballni tashkil etadi.

“Solfedjio” fanning maqsadi va vazifalari

2-bosqich “Solfedjio” fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi – barcha ixtisosliklar uchun musiqiy eshitishni rivojlantirish va kasbiy tayyorlanishda eng muhim predmetlardan hisoblanadi. Musiqiy eshitish darajasining yuqoriligi, kuylash malakasi va musiqiy xotirani kuchliligi xonanda va dirijyorlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.

Fanni o‘zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - Abituriyentlar turli yo‘nalishlarda bilimlarga ega bo‘lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Solfedjio fani bo‘yicha talabalar o‘rganilayotgan materialning qaysi millatga taalluqli bo‘lishidan qat’iy nazar musiqiy eshitish, xotirani har tomonlama rivojlantirish, kuylash va tinglash jarayonida tovush tozaligini nazorat qilish kabi tasavvur, tushuncha va bilimlarga ega bo‘lishi lozim.

Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar

Abituriyent “Solfedjio” fanidan o‘quv dasturi doirasida to‘laqonli bilimga ega bo‘lgan holda, notaga qarab kuylashni bajarganda, musiqiy-nazariy va amaliy ko‘nikmalarini namoyish qilganda, shuningdek, fan bo‘yicha bilimlari yuqori darajada bo‘lganida qo‘yiladi. Talabaning solfedjio fanidan qobiliyatini yorqin namoyon bo‘lishi kerak.

Solfedjio fanidan abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

OG‘ZAKI:

1. Notanish bir ovozli misollarni dirijyorlik qilib kuylash
2. Notanish ikki ovozli misollarni dirijyorlik qilib kuylash
3. Intervallar va akkordlarni eshitib aniqlash.

OG‘ZAKI SAVOL-JAVOB BO‘YICHA BALLARNI TAQSIMLANISHI:

№	Savollar mazmuni	To‘liq javob uchun ball
1.	Notanish bir ovozli va ikki ovozli misollarni dirijyorlik qilib kuylash;	
a)	Tonallikni to‘g‘ri aniqlash	8 ballgacha;
b)	Sof kuylash	8 ballgacha;
c)	Ritmik ketma-ketlikka aniq rioya qilish	8 ballgacha.

2.	Intervallar va akkordlarni eshitib aniqlash.	6 ballgacha.
Jami		30,0

Solfedjio fani uchun qo'yiladigan maksimal ball – 30,0 ball.

Ijodiy imtihonni o'tkazish tartibi

60211000 – San'atshunoslik: musiqashunoslik ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan Abiturient jadval asosida oldindan belgilangan muddatlarda Toshkent shahridagi O'zbekiston davlat konservatoriyasi binosida ijodiy imtihon topshiradi. Imtihonlar yakka tartibda Qabul komissiyasi tomonidan belgilangan auditoriyalarda o'tkaziladi.

Mazkur ta'lim yo'nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlarga jami qo'yiladigan maksimal ball – 156,0 ball.

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha konservatoriya qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan kundan (vaqtdan) boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat Abiturient o'zi to'plagan ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa Abiturientlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

**O'zbekiston davlat konservatoriyasi 60211000-San'atshunoslik:
musiqashunoslik ta'lim yo'nalishi uchun Ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturiga
TAQRIZ**

Mazkur 60211000-San'atshunoslik: musiqashunoslik ta'lim yo'nalishi uchun taqdim etilayotgan ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturi ikki fandan iborat bo'lib, o'z navbatida ikki bosqichda amalga oshiriladi. Abiturientlar avval "Musika adabiyoti va fortepiano" fanidan ikki bosqichda nazariy hamda amaliy vazifalarni bajaradilar. Ikkinchi fan sifatida "Musika nazariyasi (garmoniya va solfedjio)" kiritilib, unda ham ikki bosqichda topshiriqlar amaliy tomondan ijro etiladi.

Musiqashunoslik ta'lim yo'nalishida tahsil olishni istayotgan abiturientlar uchun jahon xalqlari musika adabiyoti, o'zbek musika adabiyoti, xususan bastakorlik va kompozitorlik ijodiyoti hamda sohaga oid mashhur chet el va o'zbek tadqiqotchilarining ilmiy ishlari, maxsus adabiyotlar bilan tanish ekanligi muhimdir.

Fortepiano fani bo'yicha esa cholg'u texnikasini o'zlashtirganligi, musiqiy asarning badiiy mazmunini yetkazib berish qobiliyati, shu bilan birga ijro etayotgan asarlarni to'g'ri tahlil qila olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Musiqiy nazariy fanlar bo'yicha garmonik ketma-ketlikdagi garmonik izchilliklarni ijrosi orqali amaliy hamda nazariy bilimlarini ko'rsata olishi, shuningdek notaga qarab kuylay olishi, lad, interval va akkordlarni kuylab, so'ngra tinglab aniqlay olishi zarur bo'ladi.

Mazkur o'quv dastur mantiqan izchil va to'g'ri tuzilgan. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda mazkur dasturni ta'lim tizimiga joriy etish mumkin deb hisoblayman.

O'zDK huzuridagi Botir Zokirov

**nomidagi MESI "Musiqiy nazariy va
tarixiy fanlar" kafedrasini mudiri, s.t.f.d. (PhD)**



N.T.Xamdamova

**O'zbekiston davlat konservatoriyasi 60211000-San'atshunoslik:
musiqashunoslik ta'lim yo'nalishi uchun Ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturiga
TAQRIZ**

Mazkur 60211000-San'atshunoslik: musiqashunoslik ta'lim yo'nalishi uchun taqdim etilayotgan ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturi o'z ichiga "Musika adabiyoti va fortepiano" va "Musika nazariyasi (garmoniya va solfedjio)" fanlarini qamrab olgan. Shuningdek, dasturda to'rtta bosqichga bo'lingan holda nazariy-amaliy tarzda o'tkazilishi tizimli ravishda yozib o'tilgan.

Musiqashunoslik ta'lim yo'nalishi abituriyentlari uchun jahon xalqlari hamda rus musika adabiyoti, o'zbek musika adabiyoti, jumladan sohaga oid mashhur chet el va O'zbekiston tadqiqotchilarining ilmiy ishlari, maxsus musiqashunoslikka oid adabiyotlarini bilishlari, fikr-mulohaza yurita olishlari asosiy vazifalardandir. O'zbek musika adabiyotida bastakorlik va kompozitorlik ijodiyotiga alohida ta'kidlab o'tilishi muhim shartlardan biridir.

Forteplano fanida musiqiy asarning badiiy mazmunini yetkazib berish qobiliyati, cholg'u texnikasini o'zlashtirganligi hamda ijro etayotgan asarlarni to'g'ri tahlil qila olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Musiqiy nazariy fanlar bo'yicha garmonik ketma-ketlikdagi garmonik izchilliklarni ijrosi orqali amaliy hamda nazariy bilimlarini ko'rsata olishi, xususan notadan kuylay olishi, xalq ladlari, major-minor turlari, interval va akkordlarni kuylay olishi va tinglab aniqlashi zarur bo'ladi.

Mazkur o'quv dastur mantiqan izchil va to'g'ri tuzilgan. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda mazkur dasturni ta'lim tizimiga joriy etish mumkin deb hisoblayman.

O'zbekiston davlat konservatoriyasi
"Musika tarixi va tanqidi" kafedrasi
professori, s.f.n.



S.B.Qosimxo'jaeva

O'zbekiston davlat konservatoriyasi 60211300-Dirijyorlik; 60211301-Dirijyorlik: Akademik xor dirijyorligi, 60210100-Texnogen san'at (musiqiy ovoz rejissyorligi), 60211401-Vokal san'ati: akademik xonandalik, 60211501-Cholg'u ijrochiligi: fortepiano (organ), 60210900-Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishlari uchun Ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturiga

TAQRIZ

Mazkur 60211300-Dirijyorlik; 60211301-Dirijyorlik: Akademik xor dirijyorligi, 60210100-Texnogen san'at (musiqiy ovoz rejissyorligi), 60211401-Vokal san'ati: akademik xonandalik, 60211501-Cholg'u ijrochiligi: fortepiano (organ), 60210900-Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishlari uchun taqdim etilayotgan ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturi "Musika tarixi va nazariyasi" fanidan iborat bo'lib, o'z navbatida uch bosqichda amalga oshiriladi. Abiturientlar avval "Musika adabiyoti" fanidan nazariy bilimlari, musika ilmidagi fikrlashlariga e'tibor beriladi. Ikkinchi bosqichda "Garmoniya" fanidan egallangan nazariy bilimlarni amaliy jihatdan ochib berib, uchinchi bosqichda "Solfedjio" fanida nota yozuvida savodli o'qish mashqlari baholanadi.

Musika ilmining barcha ta'lim yo'nalishlarida tahsil olishni istayotgan abiturientlar uchun jahon xalqlari musika adabiyoti, o'zbek musika adabiyoti, xususan bastakorlik va kompozitorlik ijodiyoti hamda maxsus adabiyotlar bilan tanish ekanligi muhimdir.

Musiqiy nazariy fanlar bo'yicha garmonik ketma-ketlikdagi garmonik izchilliklarni ijrosi orqali amaliy hamda nazariy bilimlarini ko'rsata olishi, shuningdek notaga qarab kuylay olishi, lad, interval va akkordlarni kuylab, so'ngra tinglab aniqlay olishi zarur bo'ladi.

Mazkur o'quv dastur mantiqan izchil va to'g'ri tuzilgan. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda mazkur dasturni ta'lim tizimiga joriy etish mumkin deb hisoblayman.

O'zDK huzuridagi Botir Zokirov
nomidagi MESI "Musiqiy nazariy va
tarixiy fanlar" kafedrasining mudiri, i.f.d., (PhD)

N.T.Xamdamova

O'zbekiston davlat konservatoriyasi 60211300-Dirijyorlik; 60211301-Dirijyorlik: Akademik xor dirijyorligi, 60210100-Texnogen san'at (musiqiy ovoz rejissyorligi), 60211401-Vokal san'ati: akademik xonandalik, 60211501-Cholg'u ijrochiligi: fortepiano (organ), 60210900-Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishlari uchun Ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturiga

TAQRIZ

Taqdim etilayotgan 60211300-Dirijyorlik; 60211301-Dirijyorlik: Akademik xor dirijyorligi, 60210100-Texnogen san'at (musiqiy ovoz rejissyorligi), 60211401-Vokal san'ati: akademik xonandalik, 60211501-Cholg'u ijrochiligi: fortepiano (organ), 60210900-Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishlari uchun ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturlari "Musika tarixi va nazariyasi" fanidan iborat bo'lib, o'z navbatida uch bosqichda amalga oshiriladi. Abiturientlar avval "Musika adabiyoti" fanidan nazariy bilimlariga, musika ilmidagi fikrlashlariga e'tibor beriladi. Ikkinchi bosqichda "Garmoniya" fanidan egallangan nazariy bilimlarni amaliy ijro etilishi orqali ochib berilishini nazarda tutadi. Uchinchi bosqichda "Solfedjio" fanida kuy misollarini sof intonatsiyalash muhim bo'lib, nazariy bilimlarni amaliyotdagi aksini namoyish etishdan iborat.

Musika ilmining barcha ta'lim yo'nalishlarida tahsil olishni istayotgan abiturientlar uchun jahon xalqlari musika adabiyoti, o'zbek musika adabiyoti, xususan bastakorlik va kompozitorlik ijodiyoti hamda musiqashunoslikka oid maxsus adabiyotlar bilan tanish ekanligi muhimdir.

Musiqiy-nazariy fanlar bo'yicha garmonik ketma-ketlikdagi garmonik izchilliklarni ijrosi orqali amaliy hamda nazariy bilimlarini ko'rsata olishi, xususan notadan kuylay olishi, xalq ladlari, major-minor turlari, interval va akkordlarni kuylay olishi va tinglab aniqlashi zarur bo'ladi.

Mazkur o'quv dastur mantiqan izchil va to'g'ri tuzilgan. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda mazkur dasturni ta'lim tizimiga joriy etish mumkin deb hisoblayman.

O'zDK "Musika nazariyasi" kafedrası

katta o'qituvchisi



S. Maxmudova